





Tatariston rahbari Termiz tumanida ishlab chiqarish korxonasi va logistika markazi faoliyati bilan tanishdi



Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixonov rahbarligidagi delegatsiya viloyatimizga tashrifini davom ettirmoqda. Mehmonlar Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov hamrohligida Termiz tumanida joylashgan “Termiz National Carpets” MChJning gilam mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi faoliyati bilan tanishishdi.





Umumiy qiymati 236 mlrd soʻm boʻlgan mazkur korxona tomonidan yiliga 2,2 mln kvadrat metr gilam mahsulotlari ishlab chiqariladi. Mahsulotlarning 55 foizi ichki bozorga, 45 foizi qoʻshni davlatlarga, xususan, Afgʻoniston, Tojikiston va Qirgʻizistonga eksport qilinmoqda. Tatariston rahbariga ishlab chiqarish jarayonlari hamda tayyor mahsulotlar tanishtirildi.



Shundan soʻng, Tatariston delegatsiyasi Rossiyaning “LETO” korxonasi taʼsischiligidagi “TERMIZ AGRO IMPEX” MChJ xorijiy korxonasi tomonidan tashkil etilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirish, saqlash, saralash va eksportga yoʻnaltiruvchi logistika markazi faoliyati bilan tanishishdi.



Umumiy maydoni 10 gektar bo'lgan markazda 3 gektar issiqxona, 4 gektar ochiq maydonlar hamda 3 ming metr kvadrat muzlatgichli omborxona tashkil etilgan. Issiqxona va ochiq maydonlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, brokkoli, karam, ko'katlar, rozmarin, pomidor va bodring yetishtiriladi. Logistika markazi joriy yil yakuniga qadar 2,5 mln dollarlik mahsulotni eksport qilishni rejalashtirgan.



Mahsulot yetishtirish, saqlash va eksportga tayyorlash jarayonlari Tatariston rahbarida katta qiziqish uyg'otdi hamda vazirlari va mas'ullariga vohamiz tadbirkorlari bilan hamkorlikda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha vazifalarni topshirdi. Ikki tomon vakillari ham o'zaro hamkorlikdan manfaatdor ekanliklarini qayd etishdi.